

KARYERLARDA QO‘LLANILADIGAN UZLUKSIZ OQIMLI TEXNOLOGIYA(IQIT) KONSTRUKSIYASINI O‘ZGARTIRISH ORQALI YUK TASHISH UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASH.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali 2-
bosqich magistranti**

**Turanov Akrom Shavkat o‘g‘li
Ilmiy rahbar : Dots. Tolipov N.U.**

Anotatsiya: Konchilik sanoati texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga, birinchi navbatda, konlarni nisbatan taraqqiy etgan ochiq usulda qazib olishni rivojlantirish orqali erishiladi. Chunki foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan istiqbolli usul hisoblanadi. Ochiq usulda kon qazishning qudratli industrial bazasining mavjudligi va foydali qazilma zaxiralarining katta qismining yer yuziga yaqin joylashganligi tufayli hozirgi vaqtda mamlakatimizda qazib olinayotgan qattiq mineral xomashyolarning katta qismi (80 - 85%) ochiq usulda qazib olinmoqda. Shu tufayli yurtimizdagi deyarli barcha konlarni chuqurligi yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa foydali qazilmani yer yuzaziga chiqarishda qator muammolarga va iqtisodiy jihatdan qimmatga tushadi bunga yechim sifatida hozir chuqur karyerlarda uzluksiz oqimli texnologiya(IQIT) qo‘llanilmoqda. Yurtimiz mutadil iqlim zonasida bo‘lganligi uchun yilning deyarli yarimi yog‘ingarchiliklarsiz o‘tmaydi. Bu esa texnologiyaga o‘z tasirini o‘tkazmay qo‘ymaydi ya’ni texnologiyamizni doimiy harakatini taminlovchi roliklar yog‘ingarchilik namlik tufayli sirpanishi yoki harakatdan to‘xtab qolishi mumkin. Bunga yechim sifatida metal rolik barabanlar o‘rniga sirti rezina bilan qoplangan rolik va barabanlardan foydalanish orqali sirpanishni oldini olib, ishni uzluksizligini ta’minlashimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz oqimli texnologiya(IQIT), rolik, karyer, tasmali konveyer.

Konchilik institutlari olib borgan tadqiqotlarga ko‘ra, an’anaviy transport turlarining hech biri 400 m dan ortiq chuqurlikdagi karyerlardan tog‘ jinsi massasini samarali tashish qobiliyatiga ega emas. Tog‘-kon massasini qazib olishning rivojlanishi va bunday karyerning ishchi zonasini shakllantirish tahlili shuni ko‘rsatadiki, transport masalalarini hal qilishda va chuqur joylashgan foydali qazilma konlarini o‘zlashtirishning samarali transport sxemasini tanlash asosiy vazifa sanaladi. Transport turini to‘g‘ri tanlash nafaqat yuklash-tashish ishlarini osonlashtirib balki, karyerni chuqurlashish, qazish ishlarini jadalligini oshiradi.

Chuqur karyerlarni tubidan tog‘ massasini chiqarishda xarajatlarni kamaytirish va shunga mos ravishda qazib olish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yechimi bu, uzluksiz oqimli texnologiya(IQIT) ya’ni avtomobil-konveyerli, temir yo‘l-konveyerli texnologik sxemalardan foydalanish hisoblanadi. Tog‘ jinsi massasini yuk mashinalari bilan tashishda energiyani 60% mashinani o‘zi 40%i tashishga yukga sarflanadi. Tasmali konveyerlar uchun bu nisbatan mos ravishda 20% va 80% ni tashkil qiladi. Bizni hududimizda hozirda bu texnologiya “Navoiy KMK”ning Muruntov konida

qo'llanilmoqda.texnologiyani konstruksiyalaridan asosiy qismi bo'lgan rolik va barabanlar(1-rasm) havoning injiqliklarida ishlab chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazmay qomaydi. Ya'ni yog'ingarchilik paytlarida rolik barabanlar namlanib tasma bilan ishqalanib sirpanadi va tasmali konveyer harakatdan to'xtaydi. Bu masalaga yechim sifatida metal rolik va barabanlar o'rniga rezina qoplamali rolik va barabanlardan(2-rasm) foydalanish orqli bu masalaga yechim bo'la oladi. Sababi,

1-rasm



Metal konveyer roligi va barabani

2-rasm



Rezina qoplamali konveyer roligi va barabani

tasmali konveyer materiali rezina bo'lganligi va rolikni qoplamasi ham rezina bo'lganligi sababli sirpanish yuzaga kelmaydi. Natijada iqlimning har qanday holatida foydali qazilma konlarida kon massasini tashish to'xtab qolmaydi bu esa yillik berilgan rejani o'z vaqtida bajarishga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мальгин О.Н. и др. Совершенствование циклично-поточной технологии горных работ в глубоких карьерах. - «Фан». Ташкент - 2002 г..
2. Сапаков ЕА., Кулнияз С.С. Способ вскрытия при реконструкции глубоких карьеров // Предварительный патент Республики Казахстан №14123 E21C49/26 - бюл. №3- 2004.
3. Сапаков Е.А. и др. Разработка циклично-поточной технологии для карьеров корпорации «Казахмыс» // Горный журнал. - 2005 - №5 (специальный выпуск).
4. Сапаков ЕА., Жаркенов М.И., Букейханов Д.Г. Обоснование граничных коэффициентов вскрыши при открытой разработке Жиландинской группы месторождений. // Горный журнал. - 1993. - №11.